

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 10

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 10 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамият.

#### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Фарманова Гулнара Комилевна*  
МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО  
СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА ..... 9-18

*Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*  
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ  
ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ-30-ЙИЛЛАР  
БОШИ) ..... 19-26

*Ахмедов Шахзод Фарход ўғли*  
МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ  
УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ ..... 27-34

*Mirsoatova Sayyora Turg'unovna*  
MARKAZIY FARG'ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR ..... 35-39

*Янгибоева Дилноза Ўктамовна*  
МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАХДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ  
ФАОЛИЯТИ ..... 40-48

*Маҳмудов Эркинжон Асқаралиевич*  
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРФОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА  
УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ ..... 49-53

*Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich*  
O'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI ..... 54-58

*Ergasheva Bahridil G'olibjonovna*  
IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRIGA  
DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSIOLOGIK TAHLIL) ..... 59-65

*Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли*  
МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ..... 66-74

*Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi*  
XORIJIIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA  
ERISHILGAN KO'RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) ..... 75-80

*Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна*  
БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ  
ТАРИХИГА БИР НАЗАР ..... 81-86

### 8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Boltayev Nurali Shiramatovich*  
AGRAR OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING  
BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 87-93

<i>Дустова Мухайё Худайбердиевна</i> РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ .....	94-102
<i>Ravshanov Malik Naimovich</i> METHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD TRANSPORT COMPLEX.....	103-108
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i> TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI .....	109-115
<i>Raximjonov Kamronbek Ixomjon o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH .....	116-121
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> АКАДЕМИК ИБРОҶИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ .....	122-128
<i>Talabov Baxriddin Alijanovich</i> KONSTITUTIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA .....	129-134
<i>Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich</i> JAMIYAT HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI .....	135-140
<i>Солиев Икромжон Комилжонович</i> РАҚАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН ....	141-147
<i>То'хтайев Hakim Primovich</i> TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING NAMOYON VO'LISH XUSUSIYATLARI .....	148-153
<i>Уразалиева Гулшада</i> СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ .....	154-160
<i>Гуламова Мавжуда Ташпулатовна</i> ИЖТИМОЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА КУМУШХОНАВИЙ ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ .....	161-167
<i>Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li</i> GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOYIY-DUNYOVIY DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) .....	168-172
<i>Quvonov Sardor Zokirovich</i> MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI .....	173-178
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	

<i>Халметова Меҳрибону Гайратжонова</i> ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ .....	179-186
<i>Abdijabbor Amanov</i> MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	187-193
<i>Umarova Xurshida Zikiryoixonovna</i> AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI .....	194-201
<i>Odinayev Bekqul Imamqulovich</i> LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN .....	202-210
<i>Jaloliddin Jo'rayev, Jamoliddin Jo'rayev</i> "DEVONI LUG'ATIT-TURK" VA "GULSHAN UL-ASROR"DAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLAR QIYOSI .....	211-217
<i>Saidov Akmal Azimovich</i> "TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH .....	218-224
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Qosimov Botirjon Ma'ruffjon o'g'li</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI .....	225-231
<i>Жўраев Дилмурот Мухторович</i> МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР .....	232-240
<i>Эшонхонов Камолхон Маматхонович</i> БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР.....	241-246
<i>Бўриев Одил Қобилович</i> КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ МЕЗОНИДИР .....	247-253
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li</i> "ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI" FANI MAZMUNI VA O'QITISHNING MAVJUD HOLATI .....	254-259
<i>Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола</i> ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ КОММУНИКАЦИИ.....	260-265

<i>Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI .....	266-271
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI .....	272-277
<i>Ботиров Азизбек</i> РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	278-283
<i>Эшбеков Сардор Журакулович</i> ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНИГ МУҲИМ ОМИЛИ .....	284-288
<i>Abdullaeva Feruza Suyunovna</i> KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	289-293
<i>Ortiqov Oybek Rustamovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....	294-298
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH .....	299-303
<i>Robiya Mannopova</i> INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.....	304-308
<i>Qodirov Olim Odilovich</i> REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	309-314
<i>Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna</i> TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	315-322
<i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY- BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI .....	323-328



*13.00.00- Педагогика фанлари*

**Ortiqov Oybek Rustamovich,**  
Buxoro davlat universiteti  
pedagogika kafedrası o'qituvchisi

### **OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar, ularning mazmun-mohiyati, yurtimizning tayanchi bo'lgan yoshlarimizning ertangi kuni yaxshilash, shuningdek, ta'lim tizimi, unda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, raqobat muhitini shakllantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatli. Maqolada oliy ta'lim ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimida amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar, talaba yoshlar ongini, mafkuraviy immunitetni shakllanishiga xizmat qiluvchi sifatning tahlili bayon etilgan.

**Tayanch atamalar:** oliy ta'lim, taraqqiyot, strategiya, islohot, mafkuraviy immunitet, mafkuviy qarashlar, online kutubxona, valantiyorlar.

---

**Ortikov Oybek Rustamovich,**  
Lecturer at the Department of Pedagogy,  
Bukhara State University

### **ORGANIZATION OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

**Abstract.** This article is important because it focuses on the reforms carried out in our country, their essence, improving the future of our youth, who are the backbone of our country, as well as the educational system, the changes implemented in it, and the creation of a competitive environment. The article describes the tasks that should be performed in the system of spiritual and educational work of higher education, the analysis of the qualities that serve to form the mind of students and youth, ideological immunity.

**Keywords:** higher education, development, strategy, reform, ideological immunity, ideological views, online library, volunteers.

---

**Ортиков Ойбек Рустамович,**  
Преподаватель кафедры «Педагогика»  
Бухарского государственного университета

### **ОРГАНИЗАЦИЯ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ**

**Аннотация.** Данная статья знаменательна проведенными в нашей стране реформами, их содержанием, направленными на улучшение завтрашнего дня молодежи, являющейся опорой нашей страны, а также системой образования, изменениями, на формирование конкурентной среды. В статье изложены задачи, которые должны быть реализованы в системе духовно-просветительской работы высшего образования, анализ качеств, служащих формированию сознания учащейся молодежи, идеологического иммунитета.

**Ключевые слова:** высшее образование, развитие, стратегия, реформы, идеологический иммунитет, идеологические взгляды, онлайн-библиотека, волонтеры.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N43>

**Kirish.** Bugungi davr islohotlar va jadal taraqqiyot davridir. Huquqiy-demokratik islohotlarga rivojlanayotgan jamiyat o'zining ichki barqarorligini ta'minlash ta'lim jarayonining taraqqiyotiga bog'liq. Jahon hamjamiyatini befarq qoldirmagan yurtimiz ta'lim tizimida misli ko'rilmagan modernizatsiya jarayonlari bormoqda. Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy va akademik mustaqillikka erishishi, kredit-modul tizimi, talabalarning ta'lim olishlari uchun yaratilgan keng imkoniyatlar ertangi kunimizga xizmat qiladigan yosh avlodni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar eshigini ochilmoqda. Ta'limni korrupsiyadan xalos etish, axborot texnologiyalarning keng joriy etilishi islohotlarning mahsulidir. Mazkur islohotlar bilan birgalikda oliy ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlarini samarali tashkil etishga ham sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Ko'ngilli yoshlardan volontyorlar, targ'ibot guruhlari tashkil etilib, oliy ta'lim muassasalarining ma'naviy ahvolini yaxshilashga harakat qilinmoqda. Ta'lim muassasalarining ichki imkoniyatlari kengaytirilib, axborot-resurs markazlari, elektron ta'lim vositalari, online kutubxonalar, portallar, kutubxonalarda talabalar ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bilan birgalikda ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayoni ham birdek samarali tashkil etilib, talaba-yoshlarda vatanga muhabbat, ertangi kunga ishonch, islohotlarning mazmun-mohiyatini maqsadli tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Zero, prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash"[3] maqsadimizdir.

"O'zbekiston-2030" strategiyasidagi vazifalarni amalga oshiruvchi omillardan biri ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali yo'lga qo'yishdir. Bugungi o'ta murakkab, globallashuvning pik nuqtasiga chiqqan ijtimoiy hayotda, butun jamiyat birlikda yagona maqsad sari intilishi lozim. Ana shunday jarayonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish bevosita mutaxassislarni tayyorlash, talaba yoshlarni iymon e'tiqodli, mafkuraviy immuniteti sog'lom, barchaga ibrat namuna qilib tarbiyalash ishlarini yo'lga qo'yish zaruratini talab etadi.

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilgan islohotlarimizdan "Taraqqiyot strategiyasida **"Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish [4] nazarda tutilgan.** "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi talaba-yoshlarning huquqiy madaniyatni shakllantirish, ajdodlarimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish, kreativ va innovatsion uslublarda o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng jamoatchilikka yetkazish, oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligi samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni mushohada qila oladigan, "Mahalla — tuman — viloyat — respublika" prinsipi asosida hududlar kesimida

ijtimoiy-ma'naviy muhitni optimallashtirishga xizmat qiladigan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, maktablarni chinakam ma'naviyat- ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo'llash, mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash asosida ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Muhokama.** Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkil etilishi talaba-yoshlar ma'naviyat yuksaltirish, ijtimoiy hayotini moslashishga, jamiyatning taraqqiyotiga hissa barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Ma'naviyat – insonlarning o'zaro munosabatlari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va rivojlangan qadriyatlar tizimi[19, 255-b]. Oliy ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlari samaradorligini oshirishda quyidagi vazifalar juda muhim va juda yaxshi samara beradi. Jumladan:

- oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy yo'nalishlarda ta'lim olayotgan talabalariga milliy mafkura, vatanga muhabbat, e'tiqod, tuyg'ularini shakllantiruvchi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish usullari haqida muayyan bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- zamon talablariga mos holda aholi orasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni olib borishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish va tizimli targ'ibot ishlarini amalga oshirish;
- respublikamizning viloyat, shahar, tuman, ovul va qishloqlarida aholining keng qatlamlari, avvalambor, yoshlar o'rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, vatanparvarlik fazilatlarini uzluksiz tarbiyalashga yo'naltirilgan tizimli faoliyatni yo'lga qo'yish;
- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini atroflicha sharhlash va tushuntirish ishlarida fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni mustahkamlash;
- ma'naviy targ'ibot guruhlarini shakllantirish, jahonda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazuvchi ijtimoiy tarmoqlarda mushohada qilishini ta'minlovchi volontyorlar guruhlarini tashkil etish;
- O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatda erishayotgan yutuqlarini talaba-yoshlarga tushuntirib, ularda milliy iftixor va ajdodlar merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi axloqiy-ma'naviy mezonlarni yaratish;
- Ma'naviy ma'rifiy ishlarni samarali tashkil eta oladigan yuksak kasbiy mahorat va texnologiyalarga ega bo'lgan kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish;

Mamlakatimizda ma'naviy-mafkuraviy ishlarni keng doirada amalga oshirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelgan. Bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida jamiyatimiz mafkura immunitetini oziqlantiruvchi asosiy kuch ma'naviyat bo'lib, uning taraqqiyot uchun barcha birdek mas'uldir. Zero, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlaganidek, "Mafkura sohasida bo'shliq, degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ong-u tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Buning uchun o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, goyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar, bu — mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi, ularning barchasi ayniqsa, faol bo'lishlari lozim"[9].

Oliy ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish haqida o'ylar ekanmiz, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'p-ko'p muhim masalalardan iborat jamiyatni ma'naviy hayotini yangilashga xizmat qiluvchi bosh maqsadimiz bo'lmog'i lozim.

**Natijalar.** Mazkur masalada fikrlarimizni bayon etar ekanmiz bevosita 2017-2021 yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi", 2022-2026 yillarda mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi", 2023 yil sentyabr oyida e'lon qilingan "O'zbekiston – 2030 strategiyasi" yurtimizning taraqqiyot yo'lini belgilab berishga va jamiyatimizning ma'naviy hayotini yangi pog'ona olib chiqish maqsadida prezidentimiz tomonlaridan muhim vazifalarni amalga oshirish uchun belgilab berilgan. Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy ahvolini mazkur strategiyalar doirasida belgilangan vazifalar doirasida samarali yo'lga qo'ymog'imiz darkor.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning maqsadi iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayotini yaxshilashga xizmat qiluvchi talabalarimiz mafkuraviy immunitetini o'zagini Vatanga va millatga cheksiz muhabbat, Vatanning muqaddas, u insonning kindik qoni to'kilgan tuproq uni kamol toptiradigan, hayotiga mazmun baxsh etadigan tabarruk maskan, tolerantlik, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, millatlar totuvligiga raxna soluvchi illatlarni bartaraf etadigan, tashabbuskor, vatanga daxldorlik hissini uyg'otish, befarqlik, davlat va jamiyat oldida turgan muqaddas burch og'ishmay bajaradigan, ijtimoiy faol, jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tahlil qila oladigan, mafkuraviy ta'sirlarning mazmuni anglab yetadigan mezonlarga javob bera oladigan talabalarni tarbiyalash bevosita ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida amalga oshiriladi.

Milliy tarbiya an'analari, qadriyatlarini tiklash, oila institutini mustahkamlash, rivojlantirish, zamonaviy oila ma'naviyati mezonlarini joriy etishga qaratilgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni tashkil etish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal etishning huquqiy va pedagogik-psixologik asoslarini o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi

**Xulosa.** Oliy ta'lim ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida amalga oshirilgan ishlarning mazmuni ma'naviy yangilanish, yuksak ma'naviyat, mamlakat taraqqiyoti, Vatanga muhabbat, Vatan muqaddas, tabarruk maskan, millatlararo hamjihatlik, tashabbuskorlik, ijodiy muhit, daxldorlik, befarqlik, sansalorlik, siyosiy madaniyat, davlat, jamiyat, salohiyat, ma'naviy olam, siyosiy-huquqiy bilim, mafkuraviy-g'oyaviy jarayonlar, mafkuraviy immunitet, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya kabi tushunchalarni tahlil qilishga undaydi.

### Adabiyotlar/Literatura/References

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2023 y
2. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“ Qonuni. - Toshkent: 2020 yil 23 sentyabr
3. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi –T.: 2023 yil 12 setyabr
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida farmoni, 28.01.2022 yil
5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104 b.

7. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston 2017. - 48 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017 -488 b.
9. Mirziyoev Sh.2017yil 15 iyun kuni Toshkent shahrida "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash davr talabi" mavzusida o'tkazilgan anjumandagi nutqidan.
10. Ma'naviyat targ'ibotchisi. - Toshkent: Muharrir, 2016.
11. Ma'naviy tarbiya (xrestomatiya). - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014
12. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – T.: Muxarrir, 2016.
13. Erkaev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. - Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
14. Quronov M. Biz anglayotgan haqiqat. - Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
15. Quronov M. Milliy tarbiya (monografiya). - Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
16. Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan. - Toshkent: O'qituvchi,2011.
17. Taqdirimsan, baxtimsan, erkin va obod Vatan. - Toshkent: Ma'naviyat, 2012.
18. Qadr -qimmatim, tayanchim va iftixorimsan. - Toshkent: Ma'naviyat, 2013.
19. Falsafa (qomusiy lug'at) – T.: Sharq nashriyoti 2004 y. 491 b

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 10 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).